PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimirat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАШЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOYA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Rahmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIYAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH



Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich

NamDTU "Buxgalteriya hisobi"
kafedrası dotsenti, i.f.n.

E-mail: godirjonaka@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati, ularni takomillashtirish yo'llari hamda sohada davlat-xususiy sherikchilikning o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy davlatlarda davlat hamda nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta'lim tizimining sifatini oshirish, raqobatni kuchaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xususiy mulk, nodavlat ta'lim, xususiy sektor, ijtimoiy soha, moliyalashtirish, ta'lim tizimi, budget, davlat-xususiy sherikchilik.

Abstract. This article examines the current state of private educational institutions in the country and explores key directions for their development. It also analyzes the trends in the growth of public and private educational organizations in Uzbekistan and foreign countries. The study substantiates effective mechanisms aimed at improving the quality of education, strengthening competition, and enhancing the investment attractiveness of the sector.

Key words: private ownership, non-state education, private sector, social sphere, financing, education system, budget, public-private partnership.

Аннотация. В данной статье рассмотрено состояние развития негосударственных образовательных учреждений в республике, а также пути их совершенствования. Проанализированы тенденции развития государственных и частных образовательных организаций в Узбекистане и зарубежных странах. В исследовании обоснованы эффективные механизмы повышения качества образования, усиления конкурентной среды и расширения инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: частная собственность, негосударственное образование, частный сектор, социальная сфера, финансирование, система образования, бюджет, государственно-частное партнёрство.

KIRISH

Iqtisodiyotning liberallasuvi sharoitida umumdavlat ahamiyatiga ega yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish jarayonida davlat va xususiy sektorning kuch-qudratini birlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Chunki davlatning iqtisodiyotdagi ulushi bosqichma-bosqich qisqarib borayotgani sari, biznes subyektlarining ulushi mutanosib ravishda ortib bormoqda. Ijtimoiy muammolarni hal etishda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish xususiy sektor bilan hamkorlikni zaruriyatga aylantirmoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-02-07 sanada qabul qilingan PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni'da ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Mazkur

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son <https://lex.uz/docs/-3107036>



yondashuv ta'lim sohasida tabiiy monopoliya ko'lamini qisqartiradi, sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshiradi. Shuningdek, davlat tomonidan yo'naltirilishi lozim bo'lgan budjet mablag'larining bir qismi xususiy sheriklar investitsiyalari hisobiga qoplanib, islohotlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda davlat–xususiy sherikchilik modeli ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda samarali qo'llanilib kelmoqda. Ushbu mexanizm xususiy investitsiyalarning jalb qilinishi, tadbirkorlik ko'lami kengayishi, ilg'or boshqaruv tajribalarining joriy etilishi va zamonaviy infratuzilmaning shakllanishiga olib keladi. Natijada ijtimoiy–iqtisodiy muammolar qisqa muddatlarda o'zaro manfaatli asosda hal etilib, davlat xarajatlari optimallashtiriladi. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash va ta'lim yo'nalishlarida davlat–xususiy sheriklikka oid 10 ga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga tadbiiq etildi. "Davlat–xususiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ushbu sohada boshlangan islohotlarning mantiqiy davomidir. Qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilish jarayonida uning amaliy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan normalar bilan to'ldirildi va 20 dan ortiq davlatning ilg'or tajribasi inobatga olindi. Qonun 2019–06–11 sanadan kuchga kirdi.

Qonunga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari davlat organlari bilan o'zaro tenglik, shaffoflik, bahslashuvsiz tanlov tamoyillari, xolislik, kamsitish va korrupsiyaga yo'l qo'yimaslik kabi prinsiplarga asoslanib faoliyat yuritadi. Qonunda davlat–xususiy sherikchilikning asosiy yo'nalishlari sifatida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan. Shuningdek, DXSh bitimlarining amal qilish muddati 49 yil etib belgilangan. Loyihalarni tanlab olish tender yoki to'g'ridan–to'g'ri muzokaralar asosida amalga oshiriladi: qiymati bir million AQSh dollarigacha bo'lgan loyihalarda bir bosqichli, undan yuqori qiymatdagi loyihalarda esa ikki bosqichli tender o'tkaziladi.

Qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Moliya vazirligi huzuridagi Davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi va boshqa vazirlik hamda idoralar hamkorligida respublikaning barcha hududlarida seminarlar o'tkazildi. Tadbirlar davomida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qonunning mazmun–mohiyati tushuntirildi, ularning fikr–mulohazalari tinglandi va amaliyotda uchrayotgan muammolar bo'yicha tavsiyalar berildi.

Yuqoridagi masalalarning aksariyati davlat–xususiy sherikchilik mexanizmini ijtimoiy soha ob'yektlarida joriy etish orqali bosqichma–bosqich bartaraf etiladi. Bu jarayon bozor munosabatlarining rivojlanishi, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi va mamlakatning ijtimoiy–iqtisodiy maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois Prezidentimiz tomonidan zamonaviy, qulay va hammabop maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etishda DXSh mexanizmlaridan keng foydalanish zarurligi muntazam ta'kidlab kelinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat–xususiy sherikchilik (DXSh) ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv, moliyalashtirish va xizmat ko'rsatish mexanizmlarini joriy etishda muhim vosita bo'lib, xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Patrinos, Barrera-Osorio va Guáqueta tomonidan tayyorlangan "The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education" nomli tadqiqotda DXSh modeli davlatning moliyaviy yuklamasini kamaytirishi, ta'lim sifatini oshirishi va raqobat muhitini kuchaytirishi orqali samaradorlikka erishishga xizmat qilishi ilmiy asosda bayon etiladi. Mualliflar ta'lim sohasini davlat monopoliyasidan bosqichma-bosqich chiqarish innovatsion yondashuvlarning tezkor joriy etilishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlari orasida A. Nizamov ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik va sheriklikning boshqaruv modelini tahlil qilib, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yangi investitsion oqimlarni shakllantirishi va ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi. Shayxova tahriridagi «Теория и практика государственно-частного партнёрства» nomli qo'llanmada DXSh loyihalarida tender mexanizmi, shaffoflik tamoyillari va risklarni boshqarish uslublari batafsil bayon etiladi.

UNESCO ekspertlari tomonidan olib borilgan tahlillar xususiy ta'lim sektorining rivojlanishi raqobatni kuchaytirishi, ta'lim sifatini oshirishi hamda davlat tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xalqaro tajriba, xususan, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya misolida DXSh ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishning samarali modeli sifatida e'tirof etilgan.

Umuman olganda, ilmiy manbalar DXSh mexanizmining ta'lim sohasida qo'shimcha resurslar yaratish, boshqaruvni modernizatsiya qilish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishdagi o'zni yuqori ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi ta'lim sohasida davlat–xususiy sherikchilikning joriy etilishiga oid normativ–huquqiy hujjatlarni, statistik ma'lumotlarni hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan analitik tahlillarni chuqur o'rganishga tayangan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli



qarorlari, Moliya vazirligi huzuridagi DXSh agentligining yillik hisobotlari, Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasining statistik bazasi hamda UNESCO ekspertlarining ilmiy xulosalaridan olindi. Shuningdek, Italiya va Shvetsiya kabi davlatlarda maktabgacha ta'lim yo'nalishida qo'llanilayotgan DXSh amaliyoti taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy–statistik tahlil, taqqoslash, monitoring va kontent tahlili metodlari qo'llanildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari soni, qamrov darajasi, investitsiyalar ulushi hamda DXSh loyihalarining dinamikasi bo'yicha ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, ularning ta'lim sifati va infratuzilma rivojiga ta'siri baholandi. Tadqiqot davlat–xususiy sherikchilik mexanizmining amaliy samaradorligini aniqlash, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish omillarini belgilash hamda xorij tajribasining mahalliy sharoitda qo'llanish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat–xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etish ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirish va ularni sarflash jarayonida shaffoflikni oshirish, faoliyatning ochiqligini ta'minlash hamda muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish orqali mazkur tizimni samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarda xizmat ko'rsatish narxlarining maqbulligi va aholining moliyaviy imkoniyatlariga mosligini ta'minlash maqsadida investorlarga keng ko'lamlı soliq imtiyozlari hamda imtiyozli kreditlar beriladi. DXSh asosida yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini hamda umumta'lim maktablarini tashkil etish choralari belgilangan bo'lib, 2018–01–01 sanadan boshlab besh yil davomida xususiy bog'chalarning tabiiy gaz va elektr energiyasi xarajatlarining yarmi davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifati tubdan oshirish, intellektual, estetik va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlar ta'limini yangi bosqichga ko'tarish, xususan chet tillari, informatika, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi yuqori talabga ega fanlarni chuqurlashtirib o'qitish dolzarb masala hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitining shakllanishi fuqarolarning sifati ta'lim olish huquqini ta'minlashga sezilarli darajada xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bevosita ta'lim tizimi bilan bog'liq. Shu bois ta'lim sohasi yil sayin modernizatsiya qilinib, rivojlanishda davom etmoqda. Ta'limdagi DXSh modelini takomillashtirishda Yevropa tajribasidan mahalliy sharoitga mos jihatlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tegishli usullarni bosqichma-bosqich joriy etish talab etiladi.

Italiyada DXSh asosida faoliyat yuritadigan maktabgacha ta'lim muassasalari deyarli mavjud emas. Bunga asosiy sabab — maktabgacha ta'limning majburiy emasligi va ta'lim narxlarining nisbatan yuqoriligi. Shunga qaramay, maktabgacha ta'lim jarayoni aniq tartibga solingan bo'lib, bolalar bog'chalarida 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar qamrab olinadi. Mashhur pedagog Mariya Montessori metodikasi asosida bolaga individual yondashuv ta'minlanadi; bola didaktik materialni mustaqil tanlaydi, mashg'ulotlarning davomiyligini belgilaydi va o'z rivojlanish ritmi bo'yicha harakatlanadi.

Shvetsiyada esa maktabgacha ta'lim majburiy hisoblanadi va ota-onalar farzandlarini 1 yoshdan boshlab bog'chaga olib borishlari mumkin. Bunday muassasalarning asosiy vazifasi — bolani jamiyatda moslashishga yordam berish, tengdoshlari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shvetsiyada barcha bog'chalar pullik bo'lib, to'lov miqdori ota-onalarning daromad darajasiga hamda oiladagi bolalar soniga bog'liq. Bir bola uchun to'lov ota-onaning oylik daromadining 3% miqdorida belgilansa-da, maksimal to'lov 130 yevrodan oshmaydi; ikki farzand uchun har biri 2%, uch farzand uchun 1% miqdorida belgilanadi. Uch nafardan ortiq farzand uchun to'lov undirilmaydi, agar ota va ona davlat tashkilotida ishlayotgan bo'lsa (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida 2019-2024 yillar davomida xususiy ta'lim muassasalarini rivojlanishi haqida ma'lumot.


Yillar	2019y	2020y	2021y	2022y	2023y	2024y
MTMlar soni	650	1044	1977	2120	2782	2814
MTMlardagi o'rinlar soni	17708	31226	60889	69337	83835	84535
Xususiy MTM soni	71	719	70	69	69	70
DXShdagi MTM soni	23	38	43	54	57	58
Oilaviy MTM soni	556	935	1864	1997	2656	2686



Mamlakatimizda so'nggi yillarda xususiy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2019–2024 yillar bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot bosh boshqarmasining rasmiy saytida e'lon qilingan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani qayd etiladi.

Mazkur davrda maktabgacha ta'lim sifati va qamrov darajasini yaxshilash maqsadida davlat investitsiya dasturlari, mahalliy budjet va boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarali natija bergan. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2023 yilda 2782 taga yetib, ularning qamrov ko'rsatkichi 83 835 bolani tashkil etgan. 2024 yilda esa muassasalar soni 2814 taga, qamrov darajasi esa 84 535 nafarga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar sohadagi barqaror o'sishni ifodalaydi.

Shuningdek, davlat–xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni ham muntazam ortib borgan. Agar 2019 yilda ushbu turdagi muassasalar 23 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 58 taga yetgan. Bu holat sohada xususiy sektor ishtirokining kengayishi, raqobatning kuchayishi va ta'lim infratuzilmasining modernizatsiya qilinayotganini ko'rsatadi. Keltirilgan statistik ma'lumotlar quyidagi diagrammada vizual tarzda aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida DXSh asosida tashkil etilgan MTM lar xakida ma'lumot.

Ushbu ishlarning izchil amalga oshirilishi natijasida Namangan viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2814 taga yetkazildi, qamrov darajasi esa 84 535 nafarga oshirildi. Bu ko'rsatkichlar hududda maktabgacha ta'lim infratuzilmasining kengayib borayotganini hamda davlat va xususiy sektor hamkorligining amaliy samaralar berayotganini tasdiqlaydi.

UNESCO va DGP Research & Consulting konsalting tashkiloti hamkorligida jalb etilgan xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan milliy ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillarda ta'lim sifatini oshirishda raqobat muhitini shakllantirish, xususiy ta'lim sektorini rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ta'kidlangan. O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish, mavjud kreditlar muddatini uzaytirish, ta'lim va unga tegishli xizmatlar bo'yicha barcha soliq turlaridan ozod qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, fanlarni chet tilida chuqurlashtirib o'qitish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida xorijlik o'qituvchilar hamda mutaxassislarni jalb etish tizimi takomillashtirilgan.

Bundan tashqari, nodavlat ta'lim muassasalariga taklif etilayotgan xorijlik mutaxassislar uchun viza berish, aviatransport xarajatlari, turar joy bilan ta'minlash, mehnatiga munosib haq to'lash va soliq imtiyozlari kabi masalalar ham o'z yechimini topgan bo'lib, bu jarayon ta'limning xalqaro integratsiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi ta'lim sohasida sog'lom raqobatni kuchaytirib, o'qitish sifati va mazmunini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada yoshlarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga, erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul



qiluvchi barkamol avlodni tarbiyalashga keng imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish tizimi shakllanib, ularning boshqaruv jarayonlari bozordagi talab va taklif asosida oqilona tashkil etiladi.

Ijtimoiy sohalar, xususan ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish orqali davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hajmini optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu mexanizm ijtimoiy soha ob'ektlarini moliyalashtirishning innovatsion yo'li bo'lib, ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini oshiradi, xizmatlar bozori ishtirokchilari o'rtasida raqobatni kuchaytiradi hamda xizmatlarning yangi turlari paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Natijada, bozor tamoyillariga asoslangan ta'lim tizimi shakllanib, aholiga sifati va hamyonbop ta'lim xizmatlarini taklif etish imkoniyati yanada ortadi.

Quyidagilarni inobatga olgan holda, nodavlat ta'lim sektorining rivojlantirilishi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayon nafaqat ta'lim sifati va raqobatni oshiradi, balki mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va zamonaviy infratuzilmaga ega ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Nodavlat ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga yangi boshqaruv uslublarini, raqamli o'quv texnologiyalarini, xalqaro standartlarga asoslangan dasturlarni tatbiq etish orqali ta'lim tizimining modernizatsiyasiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, mazkur sohani rivojlantirish pedagogik kadrlar mehnatiga munosib qiymat berilishi, mehnat bozorida raqobatbardosh o'qituvchilar yetishib chiqishi va ta'lim xizmatlari diversifikatsiyalanishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., Guáqueta, J. (2009). The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. The International Bank for Reconstruction and Development // The World Bank, 53 p.
2. Yusupov, N. A., Karabaev, F. E. (2013). Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. Uchebnyy modul. Pod red. A. E. Shayxova. – T.: 113 s.
3. Nizamov, A. (2017). Ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligida davlat-xususiy sheriklik modeli. Monografiya. T.: O'MKHTTKMO va UQT instituti, 110 b.
4. Kotler, F. (2006). Marketing menyedjment. Ekspress-kurs. 2-ye izd. / Per. s angl. pod red. S. G. Bojuk. — SPb.: Piter, 464 s.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. LexUZ ma'lumotlar bazasi.
6. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishining ustuvor yo'nalishlari. Journal of New Century Innovations, 74(2), 65–70.
7. Xolmirzaev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining asosidir. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2(6).
8. Xolmirzaev, U. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(11–12).
9. Xolmirzaev, U. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(10).
10. UZDAILY. <https://www.uzdaily.uz/ru>
11. Namangan viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi axborot xizmati. <https://namangan24.uz>
12. Iroda Toshmatova. <https://yuz.uz>
13. <https://uz.drunkentengu.com>
14. <https://uz.alinks.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>